

IQTISODIY PROTSESSDA ISBOTLASH VA DALILLAR. IQTISODIY PROTSESSDA DA’VO

Muallif: Karimov Abdulaziz Abdulhamid o‘g‘li

Ta’lim muassasi: Termiz Davlat universiteti

Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Avliyoqulov Adham Alisherovich

Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi kafedrasи o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy sud ishlarida isbotlash majburiyati, dalillar tushunchasi va ularning qisqacha tasnifi, dalillarga sud tomonidan baho berish, ekspertiza tayinlash masalalari, dalillarni ta’milash, da’vo tushunchasi va Belarusiya Respublikasi iqtisodiy ish yuritushi haqida batafsila ma’lumotlatr keltirib o’tiladi.

Kalit so‘zlar. Fakt, dalil, ekspert, elektron imzo, kompleks, jarima, grafik, kredit, moliya, pul, xo‘jalik, protsess.

Kirish

Iqtisodiy sud ishlari o‘z ahamiyatiga ko‘ra ish yuzasidan tortishuvchanlik¹ va tenglik prinsipi bo‘yicha harakatni talab etadi. Tortishuvchanlik va tenglik prinsipiga amal qilish shartligi, Iqtisodiy protsessual kodeksining 9-moddasida² belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, tortishuvchanlik va tenglik prinsipi asosida o‘z talab va e’tirozlarini asoslaydigan dalillarni taqdim etish bilan iqtisodiy sud ishini o‘z foydasiga hal qilishga harakat qiladi. Iqtisodiy sud ishlarida sud, taraflar tomonidan sudga taqdim etilgan dalillarga tayanib va ishni to‘liq ochish imkonini beruvchi isbotlash bilan bog‘liq harakatlariga asoslangan holda ish yakuni bo‘yicha hal qiluv qarori chiqaradi.

Iqtisodiy protsessual qonunchiligiga ko‘ra, ishda ishtirok etuvchi har bir taraf o‘zining talablari va e’tirozlariga asos sifatida ko‘rsatilgan holatlarni isbotlashi shartligi belgilab qo‘yilgan. Sud qanday holatlар ish uchun ahamiyatga molik ekanligini, ularni taraflardan qaysi biri isbotlashi lozim ekanligini aniqlaydi, hatto taraflar bu holatlarni dalil qilib sudga taqdim etmagan bo‘lsa ham ularni sud muhokamasiga qo‘yadi.

Dalillar faqatgina taraflar tomonidan emas, balki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan taqdim etiladi. Sud ishtirokchilarga qo‘srimcha dalillar taqdim qilishni taklif qilishni taklif etishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

Iqtisodiy protsessual kodeksining 66-moddasida³ shunday belgilanadiki, ish bo‘yicha dalillar iqtisodiy protsessual kodeksi va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan tartibda olingan faktlar haqidagi ma’lumotlar bo‘lib, ular asosida sud ishidagi ishtirokchi shaxslarning talablari va e’tirozlarini asoslovchi holatlар shuningdek nizoni to‘g‘ri va asosli ravishda hal qilish uchun ahamiyatga molik bo‘lgan yana boshqa holatlар mavjudligini yoki umuman mavjud emasligini aniqlaydi. Bunday ma’lumotlar ashyoviy dalillar va yozma shakldagi dalillar, mutaxassislarning maslahat va

¹ Iqtisodiy protsessual huquqi TDYU darslik-T: “Toshkent” 2022 “Yuridik adabiyotlar publish” 102-bet

² O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi-T: “Toshkent”. 2024

³ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi-T: “Toshkent”. 2024

tushuntirishlari, ekspertlarning xulosalari, guvohlarning ko‘rsatuvlari, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning asosli tushuntirishlari bilan aniqlanadi. Qonunni buzgan ravishda olingan dalillardan foydalanishga qonun talabiga ko‘ra yo‘l qo‘yilmaydi.

Iqtisodiy protsessual kodeksining 67 va 68-moddalarida isbotlash va isbotlash majburiyati bilan bog‘liq norma belgilangan bo‘lib unga ko‘ra, isbotlashdan maqsad ishni mazmunan ko‘ra olish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan barcha holatlarni aniqlash maqsadida dalillarni to‘plash, tadqiq etish, tekshirish va qonun talabiga ko‘ra baholashdan iboratdir.

Ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o‘zining talablari va e’tirozlariga asos qilib keltirayotgan barcha holatlarni isbotlashi shart. Yuridik shaxslar va fuqarolarga nisbatan qanday turdagи huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqilayotganda huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash uchun asos bo‘lgan, holatlarni isbotlash majburiyati. asosan nazorat qiluvchi organ zimmasiga yuklatilishi qonunchiligidan belgilab qo‘yilgan

Ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o‘z talablari va e’tirozlariga asos qilib keltirayotgan dalillarini ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar oldida, agar iqtisodiy protsessual kodeksi normalarida boshqacha tarxdagi tartib belgilanmagan bo‘lsa, sud majlisi boshlanguniga qadar yoki sud tomonidan belgilangan muddat ichida ohib berishi lozim hisoblanadi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar faqat ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga oldindan tanish dalillarga asoslanishga haqli hisoblanadi.

Agar ishda ishtirokchi bo‘lgan taraflar sud tomonidan talab etilayotgan dalilni o‘zida qaysidir asossiz sabab tufayli, ushlab turgan va sud so‘rovi bilan belgilangan muddatda uni taqdim etmayotgan bo‘lsa, undagi ma’lumotlar sud tomonidan, shu taraf manfaatlariga qarshi qaratilgan deb taxmin qilinadi va u tomonidan to‘liq tan olingan deb hisoblanadi.

Iqtisodiy protsessual huquqida dalillarni nazariy jihatdan tahlil qilishda, ularni har tomonlama klassifikatsiya qilish muhimdir. Dalillar protsessual nazariy jihatdan huquqshunos olimlar tomonidan, turli yondashuvlar bo‘yicha klassifikatsiya qilinadi.

Dalillar quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin:

1. Dalillarni shakliga qarab: ashyoviy, yozma, og‘zaki, elektron dalillar;
2. Manbasiga qarab: shaxsiy va ashyoviy;
3. Vujudga kelishiga qarab: birlamchi va hosila;
4. Dalillar bilan isbotlanuvchi fakt o‘rtasidagi uzviy bog‘lanishga qarab: to‘g‘ri va egri.

Iqtisodiy sud ishlarida sudyalar oldiga elektron dalillarni tekshirish va taqdim etilgan dalillarda qarama- qarshiliklar vujudga kelganda, ularni qonuniy va asosli tarzda baholash vazifasi qo‘yilganligi ahamiyatlidir.

Dalillarni baholash mezonlari quyidagicha: dalillarning aloqadorligi, maqbulligi, ishonchliligi, dalillarning yig‘indisi bo‘lsa, ularning yetarliligi prinsiplari sud tomonidan baholanadi.

Dalillar bir vaqtida barcha baholash mezonlari orqali baholanishi lozim. Agarda dalillarni baholashda birgina mezon bilan baholash imkonи mavjud bo‘lmasa, ushbu dalil sud tomonidan qonuniy dalil sifatida baholanmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga binoan, qonun hujjalari muvofiq muayyan dalillar bilan tasdiqlanishi lozim bo‘lgan ish holatlari, boshqa dalillar bilan tasdiqlanishi aslo mumkin emas. Shuningdek, shartnomalar notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro‘yxatidan tegishli tartibda o‘tkazilishi muhim bo‘lgan hollarda ular og‘zaki tuzilgan yoki video, audio shaklda tuzilgan bo‘lsa, mazkur dalillar iqtisodiy sudlar tomonidan maqbul dalil sifatida baholanmaydi.

Sud tomonidan protsess jarayonida ekspertiza tayinlanishi ham mumkin. Bu bo‘yicha sud ajrim chiqaradi. Iqtisodiy ishlarda adabiyot, san’at, madaniyat, fantexnika, sanoat, hunarmandchilik sohalarida muayyan bir malaka talab qiladigan dalillar taraflar tomonidan taqdim qilinishi mumkin. Ushbu toifadagi dalillarga baho berishda ularga sud tomonidan ekspertiza tayinlanadi.

Ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi ajrim asoslantirilgan bo‘lishi, ajrimda ekspertiza tayinlash uchun asos bo‘lgan holatlar, tarafning keltirgan vaji yoki ishning aynan qaysi holati tekshirilishi va ushbu holatni tekshirish uchun qaysi sohadagi ekspert tomonidan o‘tkazilishi, ekspert oldiga qo‘yilgan savollar, taqdim etilgan obyektlar va materiallar ko‘rsatilishi lozim.

Ekspertizaning quyidagicha turlari mavjud:

1. Kompleks ekspertiza;
2. Komissiyaviy ekspertiza;
3. Takroriy ekspertiza;
4. Qo‘sishma ekspertiza.

Ish bo‘yicha tayinlangan ekspertlar ekspertiza bo‘yicha xulosasini yozma shaklda beradi. Ekspertiza xulosasi uch qismdan iborat bo‘lib: kirish, tadqiqot ya’ni tekshiruvchi qismi, va xulosadan iborat bo‘ladi.

Da’vo iqtisodiy protsessual huquqida muhim ahamiyat kasb etadi. Nafaqat iqtisodiy protsessda balki, fuqarolik protsessida ham da’vo muhim protsessual vosita hisoblanadi. Iqtisodiy protsessual qonunchiligidagi buzilgan huquqlarimizni da’vo qilish orqali himoya qilishimiz mumkinligi kafolatlab qo‘yilgan.

Da’vo bu buzilgan yoki nizolashayotgan huquq va manfaatlarni tiklashga qaratilgan talabdir. Da’vo ham o‘z mohiyatiga ko‘ra murakkabdir. Da’voni ikki tomoni asosida muhokama qilish mumkin.

1. Protsessual huquqiy tomoni- nizoni mohiyatidan kelib chiqb hal qilish, buzilgan yoki nizoli huquq yoxud qonun bilan himoyalangan manfaatlarni himoya qilish haqidagi iltimosnomalar bilan iqtisodiy sudga murojaat qilish.

2. Moddiy huquqiy tomoni da’vogarning javobgarga nisbatan nizoli moddiy da’vosi, shuningdek, shaxsiy nomulkiy huquqlari bo‘lishi mumkin.

Da’voning protsessualni huquqiy tomonlariga yanada aniqroq yondoshadigan bo‘lsak, uning mazmuni da’vogarning buzilgan huquqini tiklash maqsadida sudga murojaat qilishi bo‘lsa, moddiy huquqi tomoni esa da’vogar talab qilayotgan moddiyat ya’ni pul summasi, ko‘chmas va ko‘char mol-mulk, mualliflik huquqi bo‘lishi mumkin.

Asosiy qism.

Biz yuqorida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual qonunchiligiga ko‘ra, iqtisodiy protsessda isbotlash o‘zi nima ekanligini, dalillarga sud tomonidan

qanday mezonlarga tayanib baho berilishini va shuningdek, protsessual huquqda eng muhim institut da'vo tushunchasi va u bilan bog'liq yondoshuvlar haqida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tdik. Shunisi ahamiyatlici, biz qonunchiligidizda qanday kamchiliklar borligini, yoki qonunchiligidizga jahon tajribasidan foydalangan holda qanday qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish mumkinligini aniqlash maqsadida, dunyo davlatlarining iqtisodiy protsessual qonunlarini tahlil qilishimiz lozim va jahon tajribasi misolida Belarusiya Respublikasi iqtisodiy protsessual qonunchiligidini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Belarusiya Respublikasi dunyo davlatlari orasida eng tinch va iqtisodiy jihatdan eng boy mamlakat hisoblanadi. Belarusiya Respublikasi 1998-yil 15-dekabrdagi 219-Z-son bilan qabul qilingan Iqtisodiy protsessual kodeksi asosida iqtisodiy sud protsesslarini olib boradi.

Belarusiya Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 83-moddasi⁴ ish bo'yicha dalillar va isbotlash vositalari deb nomlanib unga ko'ra, Iqtisodiy protsessual kodeksga muvofiq olingan ma'lumotlar ish bo'yicha dalil hisoblanadi va boshqa qonun hujjatlari, ular asosida xo'jalik ishlarini ko'ruchchi sud da'volar va e'tirozlarni oqlaydigan holatlar mavjudligi yoki yo'qligini belgilaydi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning, shuningdek hal qilish uchun muhim bo'lgan boshqa holatlarni ko'rib chiqadi.

Quyidagilar isbotlash vositalariga tegishli:

- yozma va ashyoviy dalillar(ko'rgazmalar);
- audio va video yozuvlar;
- ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari;
- mutaxassislar maslahati;
- ekspertlarning fikrlari;
- guvohlarning ko'rsatmalari;
- davlat organlari;
- mahalliy davlat hokimiyyati va o'zini o'zi boshqarish organlarining xulosalari(fikrlari);
- boshqa hujjatlar va materiallar.

Shuningdek Iqtisodiy protsessual kodeksining 84-moddasiga⁵ binoan, yozma dalillar- bu aktlar, shartnomalar, ma'lumotnomalar, konsignatsiyalar, biznes raqamli, grafik yozuvlar shaklida tuzilgan xatlarda yozilgan yozishmalar, ommaviy axborotlar tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingan internet global kompyuter tarmog'ida mavjud bo'lgan holatlar to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan qonun hujjatlari, boshqa turdagи hujjatlar va materiallar, ish uchun ahamiyatli, shu jumladan raqamli yoki grafik yozuvlar shaklida qilinganlar, faksimil, elektron yoki boshqa aloqa vositalari orqali yoki boshqa yo'l bilan ruxsat berish hujjatning haqiqiyligini aniqlash. Faks, elektron yoki boshqa aloqa vositalari orqali olingan hujjatlar;

Shu jumladan internet global kompyuter tarmog'idan foydalangan holda, shuningdek imzolagan hujjatlar, elektron raqamli imzo yoki imzoning boshqa analogi

⁴ Economic Procedural Code of the Republic of Belarus No.219-Z of December 15, 1998. Page 33

⁵ Economic Procedural Code of the Republic of Belarus No.219-Z of December 15, 1998. Page 33

yozma dalil sifatida qabul qilinadi. Iqtisodiy protsessual kodeksda, boshqa qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan holda bunday dalillar, dalil hisoblanishi mumkin.

Hujjatlarning nusxalari xo'jalik ishlarini ko'rayotgan sudga taqdim etilsa elektron shaklda sud ushbu hujjatlarning asl nusxasini taqdim etishni talab qilishi mumkin. Iqtisodiy ishlarni ko'rayotgan sudga taqdim etiladigan hujjatlar asli nusxasiga mos kelishi kerak. To'liq yoki qisman holatda chet tilida tuzilgan yozma shakldagi dalillarga Belarus Respublikasining rasmiy tillaridan biriga tegishli ravishda tasdiqlangan tarjima ilova qilinishi kerak. Yozma dalillar qonun talabiga ko'ra asl nusxasida yoki tegishli tarzda tasdiqlangan shaklda taqdim etilishi shatyligi belgilab qo'yilgan.

Belarusiya qonunchiligiga ko'ra, ashyoviy dalillar tegishli tartibda saqlanadi. Ish materiallaridagi xo'jalik ishlarini ko'rayotgan sudda ashyoviy dalillar saqlanadi yoki undan alohida. O'zining kattaligi yoki boshqa obyektiv sabablarga ko'ra, mumkin bo'limgan ashyoviy dalillar xo'jalik ishlari bo'yicha sudga topshirilishi kerak va ular joylashgan joyda qoldiriladi. Ularning haqiqiy egalariga yoki boshqa shaxslarga saqlash uchun berilgan, barcha ashyoviy dalillar ekspertiza bayonnomasida batafsil muhrlangan holda bayon qilinadi. Agar kerak bo'lsa, fotosurat yoki videoga ham tushiriladi.

Ashyoviy dalillarni saqlash xarajatlari tomonlar o'rtasida taqsimlanadi. Xo'jalik ishlarini ko'rvuchi sud saqlovchi choralar ko'radi. Ashyoviy dalillarni o'zgarmagan holda saqlash lozim. Ashyoviy dalillarning saqlanishi ta'minlanmagan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Belarusiya Iqtisodiy protsessual kodeksining 107-moddasiga⁶ ko'ra, ishning sud tomonidan e'tirof etilgan holatlari isbotlashdan ozod qilinadi. Bu borada birinchi va apellyatsiya instantsiyalari xo'jalik ishlarini ko'rib chiquvchi sudi sudga yordam beradi

Xo'jalik yuritishning barcha bosqichlari, tomonlarning baholashda roziligidagi erishilishi prinsipi tayanadi. Ishning to'liq yoki bir qismining haqiqiy holatlari to'g'risida zarur tashabbus ko'rsatish va shu maqsadda o'z protsessual vakolatlari va sud hokimiyati organining vakolatlaridan foydalanadi.

Ishning taraflar tomonidan e'tirof etilgan holatlari ular o'rtasida erishilgan rozilik xo'jalik ishlarini ko'rayotgan sud tomonidan qabul qilinadi. Suddan tashqarida erishilgan ishning haqiqiy holatlari bo'yicha taraflarning roziligi bo'yicha majlis o'tkaziladi va bunday rozilikning mazmuni sud tomonidan bayonnomaga tuzish yo'li bilan tasdiqlanadi.

Belarusiya iqtisodiy protsessual kodeksining 113-moddasida da'voni ta'minlash asoslari ham belgilab qo'yilgan bo'lib unga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasi bo'yicha xo'jalik ishlarini ko'rvuchi sud da'voni ta'minlash choralarini ko'rishga haqli. Da'voni ta'minlashga xo'jalik protsessining istalgan bosqichida, agar muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsa, yo'l qo'yiladi. Da'voni ta'minlash choralarini ko'rish hukmning ijrosini murakkablashtirishi yoki imkonsiz qilishi mumkin.

⁶ Economic Procedural Code of the Republic of Belarus No.219-Z of December 15, 1998. Page 44

Da'voni ta'minlash chorasi xalqaro arbitraj sudi (arbitraj sudi), hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Sud tarkibining iltimosiga binoan, xo'jalik ishlarini ko'rvuchi sud tomonidan qabul qilinishi mumkin.

Belarusiya iqtisodiy protsessual kodeksining 116-moddasida⁷ da'voni ta'minlash choralarini quyidagicha keltirilgan:

- javobgarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk yoki boshqa mol-mulkka nisbatan hibsga olish va respondent yoki boshqa shaxslar bilan qolishi;
 - banklar va bank bo'lmanan kredit-moliya tashkilotlaridagi hisobvaraqlarga qo'yilgan pul mablag'larini hibsga olish;
 - javobgarga muayyan harakatlar qilishni taqiqlash;
 - javobgarga muayyan harakatlarni bajarish majburiyatini yuklash;
 - boshqa shaxslarga uning predmeti bo'yicha muayyan harakatlar qilishni taqiqlash
- tortishuv;
- ijro hujjatlari yoki boshqa hujjat bo'yicha undirishlarni to'xtatib turish;
 - da'volar berilgan taqdirda, inkassatsiyasiz (akseptsiz) tartibda undirishga ruxsat beradi;
 - bunday hujjatlarni ijro etilishi mumkin emas deb tan olish;
 - ozod qilish to'g'risida da'vo qo'yilgan taqdirda, mulkni realizatsiya qilishni to'xtatib turish;
 - uning hibsga olinishidan;
 - fuqaroning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning huquqini vaqtincha cheklash respondentlar, Belarus Respublikasidan chiqish;

Zarur bo'lganda, bir vaqtning o'zida ta'minlashi bo'yicha bo'lgan bir nechta choralarini ko'rishga ruxsat beriladi.

Da'voni ta'minlash choralariga rioya qilmaganligi uchun yuridik, jismoniy shaxslar

tadbirkorlar va fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Da'vogar ajrimni bajarmaganligi sababli unga yetkazilgan zararni undirishga haqli.

Da'vo arizasi berish yo'li bilan da'voni ta'minlash bo'yicha xo'jalik ishlarini ko'rayotgan sud; xo'jalik ishlarini ko'rayotgan o'sha sudga.

Mol-mulkni inventarizatsiya qilish va olish belgilangan miqdorda amalga oshiriladi

Qisqa xulosa

Iqtisodiy protsessual qonunchiligidagi elektron shakldagi dalillarni ta'minlash to'g'risidagi normalar mavjud emas. Elektron dalillarning yozma dalillardan farqli tomoni elektron dalillarni axborot kommunikatsiya vositasisiz tekshirib ham baholab ham bo'lmaydi. Shuningdek, elektron dalildan qancha nusxa olmang u asl holatini yo'qotmaydi.

Iqtisodiy protsessual qonunchiligiga qo'shimcha modda sifatida, elektron dalillar normasini kiritish bo'yicha taklif shundan iboratki, texnologiya asrida yashayotgan

⁷ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi-T: "Toshkent". 2024

ekanmiz, iqtisodiy protsessual qonunchiligidagi bu kamchilik bartaraf etilib, elektron dalillarni ta'minlash haqida normalar belgilab qo'yilsa, o'z dalillarini elektron shaklda taqdim etish imkoniyatidan foydalanishda, barcha tadbirkorlik subyektlariga anchagina qulaylik yaratgan bo'lar edi.

Elektron dalillar maxfiylikka asoslangan hisoblanadi. Ya'ni elektron dalillar elektron imzo, login va parol orqali, muayyan shaxslar tomonidan axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanagan holda ochiladi va himoyalangan bo'ladi. Bugungi davrga monand dalil sifatida, elektron dalil haqidagi normalar belgilab qo'yilsa, elektron dalillar qonun talabiga asoslangan va uni qabul qilishda nizoli holatlar yuzaga kelishini oldini olmaydi.

Belarusiya iqtisodiy protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy protsessual kodeksiga tuzilish jihatidan o'xshash hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda sud tizimi to'liq isloh qilinib tizimlashtirilmoqda. Masalan: Har bir sud o'z faoliyat yo'nalishi bo'yicha sud ishini ko'radi va mamlakatimizda tadbirkorliklik subyektlarining erkin harakatini ta'minlab ularning faoliyati davomida yuzaga keladigan nizoli holatlarni bartaraf etishda iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlarning o'rni benihoya kattadir. Belarusiya Respublikasida bugungi kunda iqtisodiy sud ishlarini Xo'jalik sudlari ko'rib chiqadi.

Ashyoviy dalillarni saqlash xarajatlari tomonlar o'rtasida taqsimlanadi. Ushbu ashayoviy dalillar bilan bog'liq norma Belarusiya iqtisodiy protsessual kodeksida, ham O'zbekiston Respublikasi kodeksida ham aynan bir xil mazmunda keltirib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasida esa, iqtisodiy sud ishlarini 2017 yildan buyon Xo'jalik sudlari emas balki, iqtisodiy sudlar ko'rib chiqmoqda. Shunisi ham ahamiyatlici, iqtisodiy protsessual qonunchiligidan shunday normalar mavjudki, bir modda talablaridagi majburiyatlarini bajarmaslik, boshqa bir modda talablarini bajarish majburiyatini yuklaydi.

Masalan: Iqtisodiy protsessual kodeksining 69-moddasi 8-qismida takidlanadiki, "Dalilni o'zida saqlayotgan shaxs qonun talabiga ko'r, talab qilinayotgan dalilni sudga taqdim etish majburiyatini sud uzrsiz deb topgan ayrim sabablarga ko'ra, bajarmagan holatlarda, dalilni saqlayotgan shaxsga iqtisodiy protsessual kodeksining 14-bobi ya'ni "Sud jarimalari" deb, nomlanadi va ushbu bobning 125-moddasi talabiga ko'ra, "Sud jarimalari iqtisodiy protsessual kodeksida belgilab qo'yilgan hollarda sud tomonidan solinishi belgilab qo'yilgan".

Shuningdek, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha, yuridik shaxslarga esa bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravarigacha miqdorda sud jarimasi solinishi belgilab qo'yilgan. Sud tomonidan davlat organlarining va boshqa organlarning, shuningdek tashkilotlarning mansabdor shaxslariga solingan jarimalari ularning shaxsiy mablag'lari hisobidan undiriladi. Bu normaning belgilanishi dalillarni taqdim etish majburiyatini o'z vaqtida va lozim darajada bajarmagan holatlarda qo'llaniladi. Javobgarlik masalasining alohida bobda belgilanganligi ham ahamiyatli hisoblanadi. Shuningdek, dalillarni o'zida saqlayotgan shaxs, jarimani to'lash majburiyatini bajargan bo'lsa-da, qonunchiligidan ko'ra dalillarni sudga taqdim etish majburiyatidan also ozod etilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi-T.: “Toshkent”. 2024
2. Economic Procedural Code of the Republic of Belarus No.219-Z of December 15, 1998

INTERNET MANBALAR

- 1.** <https://lex.uz/ru/docs/-3523891>
- 2.** [https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn =1817](https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=1817)